

SIRDARYO VILOYATI MIRZAOBOD TUMANIDA  
TUPROQLARINING MELIORATIV HOLATI

Hayitaliyeva Madina  
*Guliston davlat universiteti 2 kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu izlanishning maqsadi Mirzacho'l zonasida tuproq sho'rلانishiga moyil bo'lgan Mirzaobod tumani sho'rланish kartasiga erishishdir. Elekrokonduktivlik meteri va xlор o'lchovlari asosida o'lchanan sho'rланish ma'lumotlari Sirdaryo Gidromeliorativ Ekspeditsiyasidan olindi. Tuproq sho'rланish kartalarini yaratish uchun jami 14 ta interpolyatsiya metodlaridan foydalanildi. Ushbu interpolyatsiya metodlaridan local polynomial interpolyatsiya metodi eng kichik RMSE=0.03885 ni ko'rsatdi. Tuproq sho'rланishi to'rtta: sho'rланmagan, kam sho'rланgan, o'rtacha sho'rланgan va kuchli sho'rланgan tuproq sho'rланish turlariga bo'lindi.

**Kalit so'zlar:** Tuproq sho'rланishi, Geostatistik interpolyatsiya metodlari, RMSE, sho'r yuvish

**Abstract:** The aim of this study is to obtain a map of the salinity of Mirzaabad district, which is prone to soil salinization in the Mirzachul zone. The salinity data measured on the basis of the electroconductivity meter and chlorine measurements were obtained from the Syrdarya Hydro Meliorative Expedition. A total of 14 interpolation methods were used to create soil salinity maps. Of these interpolation methods, the local polynomial interpolation method showed the smallest RMSE = 0.03885. Soil salinity is divided into four types: non-saline, low-salinity, moderately saline and strongly saline soils.

**Keywords:** Soil salinity, Geostatic interpolation methods, RMSE, saline leaching

### KIRISH


Dunyoda yiliga 2 million hektar atrofidagi yer maydoni ma'lum darajada sho'rланayapti (Abbas et al., 2013). Juhon banki va UNDP ga ko'ra, ushbu sho'rланayotgan yer maydoni har yili 1 mlrd dollar miqdordagi mablag'ning sarf bo'lishiga sabab bo'lmoqda (World Bank, 2007; UNDP, 2009).

Hozirda respublikamizning 4304,2 ming hektar sug'oriladigan yerlarining 60 foizga yaqini turli darajada sho'rланgan bo'lib, kuchsiz sho'rланgan yerdarda paxta hosilini sho'rланmagan unumdar yerkarga nisbatan 20-30%, o'rtacha sho'rланgan yerdarda 40-60%, kuchli sho'rланgan yerdarda esa 80% gacha kamayishi ilmiy tadqiqotlar va dala tajribalarida isbotlangan.

Sirdaryo viloyatidagi Mirzaobod tumani tuproq sho'rланishiga moyilligi sabab o'rganish maydoni deb olindi. Tumanda suv bosadigan va markaziy tekisliklarda sizot suvlari sathi mos ravishda 1-2.5 dan 2-3m ni tashkil etadi (Goskomgeodezkadastr, 2010). Viloyatda qishloq xo'jaligi maydonlarining ko'p qismi turli darajada sho'rланgan: 9% juda

kuchli sho'rangan, 60% kuchli sho'rangan va 21% o'rtacha sho'rangan. (State Research Institute of Soil Science and Agrochemistry, 2005). O'rtacha yillik harorat qishda 5 °C va yozda +28 °C hamda o'rtacha yillik yog'ingarchilik 180–220 mmni tashkil etadi. Asosiy ekinlar paxta va kuzgi bug'doy hisoblanadi. Mirzabod tumani tuproqlarda gumus va oziqa elementlarining kamligi, karbonatlarga esa boyligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Viloyat bo'z tuproqlaridagi gumus miqdori keng oraliqda tebranib, 0,4-0,5% dan 1,2-1,6%, o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlarda – 1,8-2,0% gacha bo'lgan miqdorlarni tashkil etadi, SO<sub>2</sub> karbonatlar 4-5% dan 8-9% gacha bo'lgan miqdorlarda kuzatiladi. 100-150 tonna tuzlar zaxirasi bo'lgan tuproqlar sifat ko'rsatkichlariga ko'ra o'rtacha, 150-200 tonna tuzlar zahirasi bo'lgan tuproqlar esa qoniqarli meliorativ holatdagi tuproqlar hisoblanib, sho'rlnish darajasiga ko'ra, har ikkala holatda ham o'rtacha sho'rangan tuproqlar guruhiga mansub. Bu guruh tuproqlar oldingi tavsiflangan tuproqlar guruhlariga nisbatan yanada katta hajmdagi, yanada samaraliroq sho'rsizlantiruvchi meliorativ tadbirlar komplekisini talab etadi, tuzlar zahiralarini miqdoriy ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, tabaqalashtirilgan me'yordarda sho'r yuvishni sifatli amalga oshirishni talab etadi.

Tuproq sho'rlnishining ayni vaqt dagi ma'lumotlari sug'oriladigan yerlarni yaxshilash va ekinlar hosildorligini oshirish uchun ma'lum vazifalarni belgilab amalda qo'llash uchun muhimdir (Ivushkin et al, 2017). Shu sabab to'g'ri tuproq sho'rlnish kartasini yaratish zarur va ArcGIS dasturidagi interpolatsiya metodlari bu muammoga yechim topishda yordam beradi.




**Tuproqning ustki 0-1 metrlik qatlami sho'ranganlik darajasini umumiyl tuzlar zahirasi bilan aniqlash, meliorativ holatini sifat va miqdoriy jihatlardan baholash klassifikatsiyasi**

| Sho'rlanish darajasi | Tuzlar zahirasining tebranish oralig'i |         | Tuzlar zahirasi bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlari | Tuproqning meliorativ holati bo'yicha sifati ko'rsatkichlari |
|----------------------|--|---------|---|--|
|                      | % %                                    | t/ga    |   |  |
| Sho'rlanmagan        | 0,0-0,35                               | 0-50    | Juda kam  | Juda yaxshi  |
| Kuchsiz sho'rangan   | 0,35-0,70                              | 50-100  | Kam   | Yaxshi   |
| O'rtacha sho'rangan  | 0,70-1,05                              | 100-150 | O'rtacha  | O'rtacha   |
| O'rtacha sho'rangan  | 1,05-1,40                              | 150-200 | baland  | Qoniqarli  |
| Kuchli sho'rangan    | 1,40-1,75                              | 200-250 | Yuqori  | Yomon  |
| Kuchli sho'rangan    | 1,75-2,10                              | 250-300 | Juda yuqori                                       | Juda yomon   |
| Sho'rxok             | >2,10                                  | >300    | O'ta yuqori                                       | O'ta yomon   |

Mazkur klassifikatsiyaga ko'ra, tuproqning ustki 0-1 metrlik qatlamida 0-50 tonna (0,0-0,35%) tuzlar zahirasi bo'lgan sug'oriladigan tuproqlar sho'rlanmagan, miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha tuzlar zahirasi juda kam, meliorativ nuqtai nazardan juda yaxshi tuproqlar hisoblanib, unumdor tuproqlar guruhini tashkil etadi.


Mirzaobod tumanida mavjud sug'orish maydonlarini SAS Planet sun'iy yo'ldoshi yordamida aniqlash hamda elektrokonduktivlik metri va xlor asosida o'lchangan 3158 ta tuproq namunalari yordamida interpolyatsiya metodlari orqali tuproq sho'rlanish kartalarini yaratishni namoyon qiladi.



**1-rasm.** Tadqiqot maydoni

Tuproq namunalari yordamida sug'oriladigan yerkarni aniqlash maqsadida yuqori aniqlikka (1.63m) ga ega bo'lgan SAS Planet sun'iy yo'ldoshidan foydalanildi. SAS Planet Google Maps, DigitalGlobe, Kosmosnimki, YandexMaps, Yahoo! Maps, VirtualEarth, Gurtam, OpenStreetMap, eAtlas, Genshtab maps, iPhone maps, Navitel maps, Bings Maps


(Bird's Eye) tomonidan olingan yuqori aniqlikka ega bo'lgan sun'iy yo'lidosh tasvirlari va an'anaviy kartalarni ko'rish hamda yuklab olish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi.



### SAS Planet sun'iy yo'loshi yordamida yaratilgan Mirzaobod tumanisug'oriladigan maydonlari kartasining ko'rinishi

Sirdaryo gidromeliorativ ekspeditsiyasi viloyatdagi sug'orish maydonlarining tuproq sho'rланishini kuzatmoqda va baholamoqda. Natijalarni taqqoslash maqsadida ekspeditsiyada 2019 yil 1-oktabrda yaratilgan karta olindi. Ekspeditsiya tuproq sho'rланishini har yili oktabr va aprel oylarining boshida o'lchamoqda. Har bir tuproq sho'rланish namunasi taxminan 15-20 ga sug'orish maydonidan olinadi. Tuproq namunalari 0-30 sm chuqurlikda joylashgan faol qatlamidan olib o'lchanadi. Kadastr ma'lumotlariga asosan, tadqiqot maydonidagi sug'oriladigan yerlar maydoni 40861 gani tashkil etadi va ekspeditsiya IDW power 2 interpolyatsiya metodi yordamida sho'rланish kartalarini yaratmoqda. Mirzaobod tumanida mavjud sug'orish maydonlarini SAS Planet sun'iy yo'loshi yordamida aniqlash hamda elektrokonduktivlik metri va xlor asosida o'lchanan 3158 ta tuproq namunalari yordamida interpolyatsiya metodlari orqali tuproq sho'rланish kartalarini yaratishni namoyon qSAS Planet sun'iy yo'loshi orqali sug'orish maydonlari aniqlangandan so'ng, 14 ta interpolyatsiya metodlari: IDW power 1,2,3, Global Polynomial, Radial Basis Functions, Local Polynomial, Ordinary Kriging, Simple Kriging, Universal kriging, Indicator kriging, Probability kriging, Disjunctive kriging, Kernel smoothing va Diffusion Kernel qo'llanildi.

**3-rasm.** Local Polynomial interpolyatsiya metodi orqali yaratilgan sho'rланish Kartasi





**1-Jadval.** Tuproq sho'rlanishi darajalari va ularning maydonlari

| №  | Interpolyatsiya metodlari | RMSE    | Tuproq sho'rlanishi darajalari va ularning maydonlari |                      |                           |                         | Umu miy maydon, ga |
|----|---------------------------|---------|---|----------------------|---------------------------|-------------------------|--------------------|
|    |                           |         | Sho'rlan magan, ga                                    | Kam sho'r-langan, ga | O'rtacha sho'rlan gan, ga | Kuchli sho'rlan gan, ga |                    |
| 1  | Local Polynomial          | 0.03885 | 63  | 10302                | 28703                     | 1793                    | 40861              |
| 2  | Ordinary kriging          | 0.03908 | 0   | 12125                | 26232                     | 2503                    | 40861              |
| 3  | Universal kriging         | 0.03908 | 0   | 12125                | 26232                     | 2503                    | 40861              |
| 4  | Kernel smoothing          | 0.03915 | 103   | 10085                | 29165                     | 1507                    | 40861              |
| 5  | Disjunctive kriging       | 0.03918 | 0   | 11591                | 29042                     | 228                     | 40861              |
| 6  | Simple kriging            | 0.03921 | 0   | 20124                | 20702                     | 35                      | 40861              |
| 7  | Diffusion Kernel          | 0.03926 | 0   | 7592                 | 32879                     | 389                     | 40861              |
| 8  | IDW power 1               | 0.03934 | 0   | 13316                | 24630                     | 2915                    | 40861              |
| 9  | Radial Basis Functions    | 0.0395  | 0   | 15200                | 22208                     | 3453                    | 40861              |
| 10 | IDW power 2               | 0.03964 | 0   | 16153                | 21402                     | 3305                    | 40861              |
| 11 | Global Polynomial         | 0.04039 | 0   | 0                    | 472                       | 40388                   | 40861              |
| 12 | IDW power 3               | 0.04066 | 0   | 18463                | 19024                     | 3374                    | 40861              |
| 13 | Indicator Kriging         | 0.47855 | 117   | 0                    | 218                       | 40525                   | 40861              |
| 14 | Probability Kriging       | 0.47882 | 117   | 5                    | 219                       | 40520                   | 40861              |

## XULOSA

Tuproq sho'rlanishi monitoringi va baholanishi turli xil interpolyatsiya metodlari orqali amalga oshirildi. Tuproq sho'rlanishi turlari va maydonlari turli xil natijalarni ko'rsatdi. O'rtacha RMSE 0.1022 ni ko'rsatdi. Kuchli sho'rlangan maydonlar tadqiqot maydonining janubiy-sharqiy qismlarida kuzatildi. The highest salinity level has been recorded in areas south-east of the district. Low ECvalues were observed in the north of the study area. Hisoblash natijalari bo'yicha Local Polynomial interpolyatsiya metodi qolgan metodlar orasida eng kichik xatolikni berdi va bu tuproq sho'rlanish darajalari kartalari maydonlarini yuqori aniqlikda topish imkoniyatini berdi. Kelgusi izlanishlarda, tadqiqot maydonining qaysi yerida qancha miqdorda sho'r yuvish uchun suv berilishini aniqlash muhim sanaladi.

## REFERENCES:

- 1) Abbas A, Khan S, Hussain N, Hanjra MA, Akbar S. 2013. Characterizing soil salinityin irrigated agriculture using a remote sensing approach. Physics and Chemistry of the Earth Parts A/B/C 55-57: 43–52. DOI:10.1016/j.pce.2010.12.004.
- 2) ESRI, (2001), ArcGIS<sup>TM</sup> Geostatistical Analyst: Statistical Tools for Data Exploration, Modeling, and Advanced Surface Generation, The USA.
- 3) Goskomgeodezkadastr, (2010). Atlas of soil cover of Republic of Uzbekistan (in Russian): Tashkent, Uzbekistan. 44.
- 4) Konstantin Ivushkin (2017), Soil salinity assessment through satellite thermography for different irrigated and rainfed crops, <https://www.researchgate.net/publication/323917996>